

JAHON MUZEY TASHKILOTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXIDAN

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrasi o'qituvchisi

J.U.Kamolov

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda o'zining muayyan faoliyat turiga ega sohalardan biri bo'lib o'rin olgan muzeylar va ularning tarixi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, muzey qanday tashkilot, ilk muzeylar qachon tashkil topganligi, qayerlarda va qanday rivojlanib borganligi haqida yoritildi.

Kalit so'zlar: ICOM, Muzeylar kechasi, muza, muzeyshunoslik, Kopernik, Ptolomey, Lorenzo, Ashmolean muzeyi.

18-may kuni butun dunyo Xalqaro muzeylar kunini nishonlaydi, ushbu sana 1977-yilda ICOM (International Council of Museums — Международный совет музеев) Xalqaro muzeylar kengashi tomonidan tashkil etilgan. Butunjahon madaniyat va san'at ixlosmandlari uchun muzeylar doim ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib kelgan. 18 – may butun dunyoda muzeylar kuni sifatida nishonlanishi ko'pchilik taxmin qilganidek, birinchi muzey ochilgan kun bilan bog'liq emas. Bu an'ana dastlab 1977 - yilda, Xalqaro muzeylar kengashining (ICOM) navbatdagi yig'ilishida o'rtaga tashlangan taklif bir ovozdan qabul qilinganidan buyon davom etib kelmoqda.

1978 - yildan beri Xalqaro muzeylar kuni 150 dan ortiq mamlakatlarda nishonlanib kelinmoqda. Bu madaniy bayramning nishonlanish darajasi bugun turli hududlarda turlicha ko'rinish kasb etadi. Ulardan biri so'nggi yillarda mashhur bo'lib kelayotgan "Muzeylar kechasi" dir.

Mavzu muzeylarning tarixi haqida ekan dastlab ayrim tushunchalarga ta'rif keltirish joiz. **Muzey** ([yunoncha](#): musion — [muza](#) larga bag'ishlangan joy) — tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan

hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi ². Muzey ishini muammolarini umumlashtiruvchi, muzey amaliyotida foydalanadigan va maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan bilimlar majmuasi – *muzeologiya* yoki *muzeyshunoslik* deyiladi. Bu termin XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lganligiga qaramasdan juda ko'plab jahon kishilarga o'rnashib qolgan. Ilgari mavjud bo'lgan «Muzeografiya» termini muzeylarga tegishli bo'lgan barcha asarlarga XX – asrning o'rtalarida boshlab esa muzeylar tavsifiga nisbatan ishlatila boshlagan.

Tarixiy muzeylar faoliyatining mazmuni jamiyat rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Yevropada zamonaviy muzeylar XVI-XVII asrlarda vujudga kela boshlagan. Bu kapitalistik ishlab chiqarishning boshlang'ich davri fan, san'at, adabiyot, texnika va hunarmandchilik keng gullab-yashnashi bilan xarakterlanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar, dunyo bo'ylab sayohatlar Kopernikning yer shar shaklida ekanligi to'g'risidagi fikrini isbotladi. Fan texnologiya ta'siridan qutuldi va kitob bosish vositasida bilimlar tez tarqala boshladi. Mana shunday ulkan ruhiy parvoz davrida Yevropaning turli joylarida ishlab chiqarish, ilmiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar munosabati bilan turli xil kolleksiyalar vujudga kela boshladi. Tarixiy va madaniy qiymatga ega bo'lgan buyumlar: aslahaxonalar huzurida harbiy o'lkalar kolleksiyalarini to'plash keng yoyila boshladi. Ilmiy tadqiqotlar ko'proq muzeylar bazasida o'tkazila boshladi va bu maxsus adabiyotlarda o'z aksini topdi ³. Tarixiy muzeylar rivojlanishidagi yana bir muhim qadam Yevropada burjua munosabatlari hali progressiv rol o'ynagan XVIII asrning ikkinchi yarmida tashlandi. Bu davrda muzeylar faoliyati ilmiy xarakter kasb eta boshladi. Muzeylarga texnik tajriba xazinasini ilmiy qadriyatlar va madaniy tarixiy meros xazinasini sifatida qarala boshlandi. XIX asrga qadar nafaqat antik davr balki ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish muzeylar bilan bog'liq edi, chunki aynan ushbu yerlarda zaruriy manbalarning asosiy qismi mavjud edi. Keng tarixiy qamrovdagi muzeylarning tashkil topishi burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy mustahkamlanish davriga to'g'ri keladi. Ko'plab Yevropa xalqlarining milliy mustaqillik, milliy o'zligining saqlash va tan oldirish uchun kurashi bu xalqlar tarixini saqlovchi va namoyish qiluvchi muzeylarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni vujudga keltirdi. Mana shu

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

³ Muzivedenie. Muзей istoricheskogo profilya. Ucheb. Posobiya dlya vuzov po spets «Istoriya» G` pod. Red. K.G.Levikina, V.Xrebsta – M;Vo`ssh.vuzov 1988 g

g`oyalar asosida, Yevropada yirik milliy muzeylarga asos solindi va ular uchun menimental binolar kurildi. Bunga 1802-yilda Budapeshtdagi, Venger milliy muzeyi 1818-yilda Pragadagi milliy muzeyi 1828- yilda Berlindagi eski muzey qurilishi misol bo`la oladi ⁴.

Noyob buyumlar, san'at asarlari, bejirim va nafis go'zalliklar hamma davrlarda ham insoniyatni o'ziga rom etgani shubhasiz, albatta. Xo'sh, bugun tarixni o'rganishning muhim va ajralmas bo'lagiga aylangan muzeylarning dastlabgisi qachon va qayerda tashkil etilgan? Butun dunyoda birinchi Museyon ya'ni ma'bud - yoki muzalar, ilhom parilarining uyi miloddan avvalgi 290-yilda paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Makedoniyalik Aleksandrning sarkardalari va vorislaridan biri Ptolomey I dastlabki muzeyning tashkilotchisi sifatida e'tirof etiladi. Ptolomey Soter I miloddan oldingi III asrda ilk muzeyga asos slogan. Manbalarga ko'ra ungacha ham «muzalar uyi» ibodatxonalari mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo Aleksandriya (Iskandariya) ibodatxonasi muzeylar tarixining tamal toshini qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblanadi. Ptolomey tomonidan yaratilgan muassasa aniq ilmiy faoliyat turlarini qo'llab – quvvatlovchi “ilmiy tashkilot” ga aylanadi. Ptolomey muzeyi yonida Botanika bog`i, hayvonot bog'i va hatto anatomik tadqiqotlar o'tkazilgan «ilmiy markaz» afsonaviy Iskandariya kutubxonasi bilan birlashtirilgan. Bu yerda faoliyat ko`rsatgan ilmiy xodimlardan sizga yaxshi tanishlari, albatta Arximed va Yevkliddir. Xodimlar bu yerda davlat homiyligi ostiga olingan. Ptolomey muzeyiga begonalarning kirishi mutlaqo ta'qiqlanar edi. Ilmiy izlanishlarga aralashishga hammaning ham salohiyati yetavermas edi. Taqdir charxpalagi bu ilmiy markazga Yunonistonni zabt etishga oshiqqan rimliklarni olib keldi. Dastlab ular «Yopiq eshiklar ortida »yaratilgan ilmiy izlanishlarni tom ma'noda davom ettirishga urinishdi. Bu yerni o'ziga hos «universitet»ga aylantirishdi. Ammo, davrlar o'tishi bilan yangi qarashlarga to'la xristianlik ta'limotlariga singib ketgan rimliklar «butparastlikka asoslangan» deb topilgan asarlarni yo'q qilishga kirishdilar. Shunday qilib, bu ilmiy boyliklardan bizgacha deyarli hech nima yetib kelmadi.

Yunonlarning yorqin misollaridan so'ng keyingi davrlar bizga muzeylar haqida qimmatli faktlar hadya etmaydi. Faqatgina XV asrga kelib Lorenzo Medichi

⁴ I. Sodikova “Madaniy yodgorliklar xazinasini” T.”Fan” 1981

Florensiyada Haykallar galereyasini tashkil etadi⁵. Hukmdor o'z uyiga olimlarni, haykaltarosh va rassomlarni taklif qilib, kutubxona tashkil etadi. Hammasi xuddi qadimgi Yunonistondagi kabi, davlat hisobidan amalga oshiriladi. Yunonlar «tajribasi ommalashishda» davom etdi. 17-asrga kelib muzey so'zi Yevopada qiziqarli kolleksiyalarni tasvirlash uchun ishlatila boshlandi. Angliyada Jon Tradeskantning Lambethdagi (hozirgi London tumani) kolleksiyasiga tashrif buyuruvchilar u yerdagi massivni muzey deb atashgan; 1656-yilda nashr etilgan ushbu to'planning katalogi "Musaeum Tradescantianum" deb nomlangan. 1675-yilda to'plam Elias Ashmolning mulkiga aylanib, Oksford universitetiga topshirildi. Uni qabul qilish uchun maxsus bino qurilgan va u 1683-yilda ommaga namoyish etilgadan so'ng Ashmolean muzeyi sifatida tanilgan. 1753-yilda Britaniya muzeyiga asos solingan. Darhaqiqat, Deni Didro 1765-yilda nashr etilgan Entsiklopediyaning to'qqizinchi jildida Fransiya milliy muzeyining batafsil sxemasini tasvirlab berdi. 19-asrning oxiri va 20-asrda muzey so'zi xalq foydalanishi mumkin bo'lgan madaniy materiallar saqlanadigan binoni bildirgan. Jumladan, 1876-yil O'rta Osiyoda birinchi muzey tashkil topdi va shundan e'tiboran O'rta Osiyoda bosh muzeyning mavjudligi rasman tan olindi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda rivojlanib borayotgan turizm sohasida muzeylar o'z mustahkam o'rniga ega bo'lib ulgurdi. Muzeylarning tarixiy davrlar davomidagi rivojini ko'rib chiqar ekanmiz qanday maqsadda ishlatilganidan qat'i nazar muzeylar doim odamlarni o'ziga maftun etgan madaniy markaz namunasi bo'la olgan, xalq uyerdan o'zi uchun qaysidir darajada ma'naviy ozuqa olganligini anglash mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Bobir Boltayev. Muzeyshunoslik fanidan uslubiy - qo'llanma. "Durdona" nashriyoti, Buxoro. 2016.
2. Krushkol. Qadimgi dunyo tarixi."o'qituvchi".T.,1964
3. Muzivedenie. Muzey istoricheskogo profilya. Ucheb. Posobiya dlya vuzov po spets «Istoriya» G` pod. Red. K.G.Levikina, V.Xrebstsa – M;Vo`ssh.vuzov 1988 g

⁵ <https://www.britannica.com/topic/museum-cultural-institution#ref341406>

4. I. Sodikova "Madaniy yodgorliklar xazinasini" T."Fan" 1981

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

6. <https://news.rambler.ru/other/44201332-mezhdunarodnyy-den-muzeev-v-kitae/>

7. <https://www.britannica.com/topic/museum-cultural-institution#ref341406>